

O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi tomonidan
2022 yil “28” oktyabr
536p-son bilan
“QAYTA RO‘YXATDAN
O‘TKAZILGAN”



O‘zbekiston inson huquqlari “Ezgulik”
jamiyatining 1-(ta’sis) Qurultoyi tomonidan
2002-yil 17-fevralida tasdiqlanib,
uning navbatdan tashqari 2002-yil 8-iyunda,
2002-yil 3-dekabr, 2005-yil 8-may,
2005-yil 12-noyabr va 2021-yil 28-dekabrdagi
navbatdan tashqari qurultoyi Bayonnomasi asosida
“TASDIQLANGAN”



O‘ZBEKISTON INSON HUQUQLARI “EZGULIK” JAMIYATI USTAVI

Toshkent – 2022

I. Umumiy qoidalar

1.1. O'zbekiston inson huquqlari "Ezgulik" jamiyati (keyingi o'rirlarda tashkilot deb yuritiladi) O'zbekistonda jamiyatning demokratlashuvi va fuqarolik jamiyatini barpo etishga hissa qo'shish, insonlarning siyosiy va fuqarolik xaq-huquqlari himoya qilish maqsadida tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi.

1.2. Tashkilotning to'liq nomi:

o'zbek tilida:

kirill alifbosida: Ўзбекистон инсон хукуклари "Эзгулик" жамияти;

lotin alifbosida: O'zbekiston inson huquqlari "Ezgulik" jamiyati;

rus tilida: Общества прав человека Узбекистана «Эзгулик»;

ingliz tilida: "Ezgulik" Human Rights Society of Uzbekistan.

1.3. Tashkilot o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Ustavga muvofiq amalga oshiradi.

1.4. Tashkilot belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtidan boshlab yuridik shaxs hisoblanadi hamda o'zining mustaqil balansi, mol-mulki, bank muassasalarida milliy va chet el valyutalaridagi hisob raqamlari, rasmiy nomi yozilgan dumaloq muhri va burchak shtampi, qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan ramziy belgisi hamda rasmiy veb-saytiga ega bo'ladi.

1.5. Tashkilot o'z faoliyatida iqtisodiy, texnik va rivojlanish yo'lini mustaqil belgilaydi, mulkiy, shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi, shuningdek majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.6. Tashkilot belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'zining hududiy bo'limlarini tashkil etish huquqiga ega bo'lib, ular belgilangan tartibda hududiy adliya boshqarmalarida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Shuningdek, ular yuqorida tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur ustav, Tashkilotning rahbar organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, yo'riqnomalar hamda hududiy bo'limlar to'g'risidagi nizom asosida faoliyat ko'rsatadilar.

1.7. Tashkilotning faoliyati nomuayyan muddatga tashkil qilingan.

1.8. Tashkilot davlat majburiyatları bo'yicha javob bermaydi. Tashkilot qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turini mazkur Ustavda belgilangan maqsadlar doirasida amalga oshirishi mumkin.

1.9. Tashkilotning alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'maklashishi mumkin. Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining tashkilot faoliyatiga aralashishi, xuddi shuningdek, tashkilotning davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishi mumkin emas.

1.10. Tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli – Jamoat birlashmasi hisoblanadi.

1.11. Tashkilot rahbar organining joylashgan yeri (pochta manzili): Toshkent shahar.


1.12. Tashkilot o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.

II. Tashkilotning maqsad va vazifalari

2.1. Tashkilot faoliyatining asosiy maqsadi O'zbekistonda jamiyatning demokratlashuvi va fuqarolik jamiyatini barpo etishga hissa qo'shish, insonlarning siyosiy va fuqarolik xaq-huquqlari himoya qilishga yordam berishdan iborat.

2.2. Tashkilot o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, ya'ni fuqaro sifatidagi siyosiy huquq va erkinliklarini (barchaning qonun oldida tengligi, har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka xaqliligi, vijdon erkinligi va boshqalarni), shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy (mehnat, madaniy va ijtimoiy ta'minot hamda boshqa) huquqlarni himoyalashga ko'maklashish;
 - inson huquqlari sohasida axborot toplash, monitoringni amalga oshirish, uni tahlil qilish va tarqatish;
 - demokratiya manfaatlarini nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasi huquqiy bazasini takomillashtirishga ko'maklashish;
 - huquq himoyani tashkil qilish jabhasida tajriba almashish va o'rganish uchun konferensiyalar, seminarlar va treninglar o'tkazish;
 - sud, tergov va boshqa huquqiy jarayonlarda qonunda belgilangan tartibda shaxslarning huquqlarini himoya qilishga hissa qo'shish;
 - fuqarolar manfaatlarini himoya qilish yo'lida hukumat tashkilotlari va muassasalari bilan aloqa bog'lab, muzokaralar olib borish;
 - ma'rifiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida o'zining bosma nashrlarini chiqarish, ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifa va kanallari faoliyatini yo'lga qo'yish va o'z rasmiy veb saytiga ega bo'lish;
 - kishilarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, va madaniy huquqlariga doir xalqaro shartnomalarning mazmun-mohiyatini tashkil etgan g'oyalarni omma o'rtasida tushuntirish va yoyishga ko'maklashish;
 - fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy madaniyatini oshirishga ko'maklashish;
 - mamlakatda inson huquq va erkinliklariga doir davlat va xalqaro tashkilotlar hisobotlariga muqobil ravishda yillik va oraliq hisobotlar e'lon qilish.
- 2.3. Tashkilot amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq va o'z ustav talablari doirasida boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.
- 2.4. Tashkilot ustav vazifalarini bajarish uchun yuridik shaxs ^{huquqlariga ega bo'lgan} kichik korxonalar, xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni tuzadi, O'zbekiston Respublikasi hududida qonun hujjatlarda belgilangan tartibda davlat organlari, tashkilot, muassasalari bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etadi hamda shunday tadbirlarda ishtiroy etadi.
- 2.5. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya)lar talab qiladigan faoliyat ^{2-turlari} bilan tashkilot faqatgina O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda maxsus ruxsatnoma (litsenziya)lar olgan taqdirdagina shug'ullanishi mumkin.



III. Tashkilotning huquq va majburiyatları

3.1. Tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

o‘z a’zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

turli tashkilotlar va muassasalarga turli masalalarga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatish;

qonunchilikda belgilangan tartibda o‘z faoliyatini yoritish uchun ommaviy axborot vositalarini ta’sis etish hamda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

ustavda belgilangan maqsadlarga erishish uchun va o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida tadbirkorlik tuzilmalarni tashkil qilish;

o‘z ramziy belgilarini ta’sis etish;

qonun hujjatlariga va o‘z ustaviga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududida o‘zining hududiy bo‘limlarini tashkil etish va ular faoliyatini ta’minlash;

o‘z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig‘ilishlar, anjumanlar, konferensiylar, seminarlar, davra suhbatlari, xayriya aksiyalari o‘tkazish;

ustavda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida boshqa tashkilotlar bilan har tomonlama foydali shartnomaga va bitimlar tuzadi hamda yaqindan hamkorlik o‘rnatadi;

ustav faoliyati bilan bog‘liq mahalliy va chet el tashkilotlarning tajribalarini o‘rganish, o‘zaro fikr almashish, ular bilan hamkorlik qilish, sohaga oid tadbirlarida malaka oshirish ishlarini tashkillashtiradi.

Tashkilot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

3.2. Tashkilot quyidagi majburiyatlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va mazkur ustavga rioya etish;

o‘z mol-mulki va pul mablag‘laridan foydalanishi, shu jumladan moliyalashtirish manbalari to‘g‘risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta’minalashi;

belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organni o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirlari to‘g‘risida oldindan xabardor qilish hamda uning vakiliga o‘tkazilayotgan tadbirlarga erkin kirish imkonini berishi;

nodavlat notijorat tashkiloti vakillarining chet mamlakatlarga nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq tashriflari uyuştirilishi haqida ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organni xabardor qilishi;

chet davlatlardan, xalqaro va chet el tashkilotlaridan, chet davatlarning fuqarolaridan yoki ularning topshirig‘iga binoan boshqa shaxslardan pul mablag‘lari va mol-mulk olishni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan kelishib olishi;

ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga, davlat soliq xizmati organlariga va davlat statistikasi organlariga o‘z faoliyati to‘g‘risida belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etish;

o‘z faoliyati yuzasidan uning a’zolariga va jamoatchilikka axborot taqdim qilib berishi shart.

Tashkilot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘ladi.

IV. Tashkilotga a'zo bo'lish va a'zolikdan mahrum bo'lish shartlari va tartibi, a'zolarning huquq va majburiyatlari

4.1. Tashkilotga a'zo bo'lish ixtiyoriydir. Tashkilot ustavini tan oluvchi, uning talablarini bajaradigan, yillik a'zolik badalini to'liq to'lagan, 18 yoshga to'lgan, jismoniy shaxslar tashkilot a'zosi bo'lishi mumkin.

4.2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng shartlarda va tartibda tashkilotning a'zosi bo'lishi mumkin. Barcha a'zolarning huquq va manfaatlari bir xilda himoyalanadi.

4.3. Tashkilot a'zolari tomonidan mazkur ustavda belgilangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda ular tashkilot etika va taftish komissiyasi taklifiga asosan Qurultoy yoki Markaziy boshqaruv majlisi qarori bilan a'zolikdan chiqariladi.

4.4. Jismoniy shaxslarni a'zolikka qabul qilish bevosita tashkilot Qurultoy yoki Markaziy Boshqaruvi qarori muvofiq amalga oshiriladi.

Tashkilot a'zoligiga kirish istagida bo'lgan jismoniy shaxslar bevosita tashkilotga yoki hududiy bo'limlarga tashkilot Markaziy Boshqaruvi nomiga yozilgan ariza bilan murojaat qiladi.

Ariza 10 kunlik muddatda ko'rib chiqilib, tashkilotga a'zolik tashkilotga a'zo qilib olinganligi to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan boshlanadi.

4.5. Tashkilot Qurultoy yoki Markaziy Boshqaruvining qaroriga binoan, tashkilot a'zolariga a'zoligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi guvohnoma berilishi joriy qilinishi mumkin.

4.6. Tashkilotga a'zolikka qabul qilinganlar Tashkilot Qurultoy yoki Markaziy Boshqaruvi tomonidan belgilangan miqdorlarda a'zolik badallarini to'laydilar. Tashkilot a'zoligidan chiqishda badallar qaytarilmaydi.

4.8. Tashkilot a'zoligidan majburiy tartibda mahrum qilish masalasi yuzasidan faqat tashkilot Qurultoy yoki Markaziy Boshqaruvi qaror qabul qiladi.

Tashkilot a'zolari o'z arizalariga asosan ixtiyoriy ravishda tashkilot Qurultoy yoki Markaziy Boshqaruvining qarori bilan a'zolikdan chiqarilishi mumkin.

4.9. Tashkilot a'zoligidan mahrum bo'lish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:
ixtiyoriylik asosida a'zoning tashkilot a'zoligidan chiqishi to'g'risidagi yozma ~~anizasiga~~ ko'ra;

a'zolik badallarini uzrli sababsiz to'lanmaganda.

4.10. Tashkilot a'zolarining huquqlari:

a'zolikka qabul qilishda rad etilgandan yoki a'zolikdan chiqarib yuborilgandan ~~numur~~ bo'lgan taqdirda tashkilot Qurultoy yoki Markaziy Boshqaruviga shikoyat bilan ~~murojaat~~ qilish;

Tashkilot a'zoligidan ixtiyoriy chiqish;

Tashkilot faoliyati yuzasidan ma'lumotlar olish;

~~rahbar~~ organiga saylanish va rahbar organiga nomzodlarni saylash;

Tashkilot faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tashkilot rahbar organlariga ~~murojaat~~ qilish;

~~numun~~ hujjatlarda va tashkilot Ustavida belgilangan tartibda Tashkilot faoliyati, ~~moliya-to'jalik~~ ishlari to'g'risida axborot olish hamda moliya hujjatlari bilan tanishish;

~~numunchilikda~~ nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

4.11. Tashkilot a'zolarining majburiyatlari:

Tashkilot ustaviga rioya etish;

Tashkilot rahbar organlari qarorlarini ijro etish;



a'zolik badallarini o'z vaqtida to'lash.

4.13. Tashkilotga to'lanadigan badallar miqdori, to'lovlarni o'tkazish tartibi, a'zolarning huquq va majburiyatları, a'zolikka kirish tartibi va tashkilot a'zoligi bilan bog'liq boshqa holatlar tashkilot Qurultoy yoki Markaziy Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadigan "Tashkilotga a'zolik to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

V. Tashkilot tuzilmasi va rahbar organlari

5.1. "Ezgulik" jamiyat markaziy (respublika) va mintaqalar (viloятлар, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri hamda tumanlararo) tashkilotlardan iborat. Tuman va shaharlarda boshlang'ich tashkilotlari tuzilishi mumkin.

5.2. Mintaqaviy tashkilot "Ezgulik" jamiyat Markaziy boshqaruvining ro'yxatga oluvchi organga murojaati va unga biriktirilgan guvohnoma va Ustav nusxasi, yig'ilish bayonnomasi va boshqa talab qilinadigan hujjatlar asosida ro'yxatga olinadi;

5.3. Davlat ro'yxatidan qonunga muvofiq o'tgan mintaqaviy bo'lim yuridik shaxs hisoblanadi, o'zining dumaloq muhri, blanki va bankda hisob raqamiga ega bo'ladi. O'z moliyaviy faoliyatini amaldagi qonunlar hamda mazkur Ustav qoidalaridan kelib chiqib amalga oshiradi.

5.4. Mintaqaviy tashkilot kamida 3 (uch) nafar a'zoga ega bo'lganda tuziladi.

5.5. Tashkilotning rahbar organlari quyidagicha shakllantiriladi:

5.5.1. Tashkilot Qurultoyi – Tashkilot oliy rahbar organi;

5.5.2. Markaziy Boshqaruv – Qurultoy oralig'idagi boshqaruv organi;

5.5.3. Rais – Tashkilot rahbari;

5.5.4. Nazorat-taftish komissiyasi – tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hamda uning mulkidan maqsadli foydalanimishini nazorat qiluvchi organ.

VI. Tashkilot rahbar organlarining vakolat doirasi va ularni shakllantirish tartibi, ularning vakolat muddatlari

6.1. "Ezgulik" jamiyatining oliy organi ikki yilda bir marta chaqiriladigan Qurultoydir. Tashkilot a'zolarining kamida uchdan bir qismi talabi bilan navbatdan tashqari Qurultoy chaqirilishi mumkin. Qurultoy chaqirilishi hamda uning kun tartibi kamida ikki hafta oldin e'lon qilinadi.

6.2. Qurultoy quyidagi vazifalarni bajaradi:

- "Ezgulik" jamiyat Ustavini tasdiqlaydi, zarurat tug'ilganda, unga o'zgartirish va zo'shimchalar kiritadi;

- jamiyatning Markaziy boshqaruvi raisi va taftish komissiyasi hisobotlarini tinglaydi;

- Markaziy boshqaruv raisi, rais o'rinosarlari va taftish komissiyasi tarkibini saylaydi;

- jamiyat faoliyatini boshqarish va rejalashtirish masalalarini muhokama etib, ular haqida qarorlar qabul qiladi.

- jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish haqida qaror qabul qiladi.

Vakillarning 50 (ellik foiz) dan ziyodi Qurultoy qarorini yoqlab ovoz bergan ular qabul qilingan, deb hisoblanadi. Ovoz berish tartibini (ochiq va yopiq shaklida) Qurultoy qatnashchilarini belgilaydi.

Qurultoy qarorlarining bajarilishi "Ezgulik" jamiyatining barcha a'zolari va tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

6.3. Qurultoylar orasida jamiyatning rahbar organi uning Markaziy boshqaruvidir. Uning tarkibiga bosh tashkilot raisi, rais o'rribosarlari, bosh yurist konsultantlari va jamiyatning mintaqaviy tashkilotlari rahbarlari kiradi. Shuningdek, Markaziy boshqaruva tarkibi Qurultoy tavsiya qilgan faollar hisobiga kengaytirilishi mumkin.

6.4. "Ezgulik" jamiyatni Markaziy boshqaruvi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Qurultoy qarorlari va u qo'ygan vazifalarni bajarishni tashkil etadi, tegishli loyiha va dasturlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

- mintaqaviy tashkilotlarning hisobotlarini tinglab, muhokama qiladi, hisobotlar bo'yicha qarorlar qabul qiladi, ular ishining yo'nalishlarini belgilaydi va yo'l-yo'riqlar beradi;

- hududiy bo'linmalar ishini nazorat qiladi, ularning faoliyatini qayta tashkil etish, to'xtatish va yo'lga qo'yish borasidagi qarorlarni qabul qiladi;

- Markaziy boshqaruva qoshida tashkil qilinadigan etika komissiyasi 7 (yetti) kishidan iborat) qarori bilan jamiyatni obro'sizlantirgan, ustav qoidalarini qo'pol ravishda buzgan yoki faoliyati qoniqarli bo'limgan faollarni a'zolikdan chiqarish bo'yicha taklif kiritadi;

- jamiyat Markaziy boshqaruvi idorasi xodimlarining vazifalari va shtatlar jadvalini belgilaydi va tasdiqlaydi;

- navbatdag'i va navbatdan tashqari Qurultoy ishini tayyorlaydi.

Markaziy boshqaruva majlisi yilda ikki marta chaqiriladi. U o'z a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etganda vakolatlari hisoblanadi. Markaziy boshqaruva majlisining qarori odatda ochiq ovoz berish yo'li bilan ko'pchilik ovoz olganda qabul qilingan hisoblanadi. Markaziy boshqaruva majlisining qarorlari va ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari mintaqaviy tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi. Markaziy boshqaruva o'zining qarorini bekor qilish huquqiga ega.

6.5. "Ezgulik" jamiyatining raisi:

- jamiyat faoliyatiga umumiyoq rahbarlik qiladi;

- jamoatchilik, xalqaro tashkilotlar, hukumat idoralari hamda ommaviy axborot vositalari oldida jamiyat faoliyati yuzasidan bayonot va chaqiriqlarni e'lon qiladi, qarorlarni bayon etadi;

- jamiyat Markaziy boshqaruvining raisi sifatida majlislarni olib boradi;

- Qurultoy va Markaziy boshqaruva majlislari qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi;

- respublikaning davlat va jamoat tashkilotlarida hamda xorijiy tashkilotlarda jamiyat nomidan vakillikni amalga oshiradi;

- jamiyat mablag'i va mulkini boshqaradi;

- moliyaviy hujjat va kelishuvlarni imzolaydi, ishonch qog'ozlari beradi.

6.6. "Ezgulik" jamiyatni raisi o'rribosari:

- "Ezgulik" jamiyatni raisi ikki nafar o'rribosarga ega bo'lib, ularning biri xalqaro aloqalar, ikkinchisi esa gender tengligi va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rribosarlardir.

- "Ezgulik" jamiyatni raisining xalqaro aloqalar bo'yicha o'rribosari jamiyat raisi miyan kelishgan holda xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, xorijiy donorlarni jalb qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun ma'suldir;

- "Ezgulik" jamiyatni raisining gender tengligi va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rribosari jamiyat faoliyatida xotin-qizlarning o'rni va rolini oshirish, jamiyat faoliyatida gender tengligiga rioya etilishi yuzasidan harakatlarni muvofiqlashtiradi.

“Ezgulik” jamiyatni raisining xalqaro aloqalar bo‘yicha o‘rribosari yoki gender tengligi va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rribosarlari jamiyat Markaziy boshqaruvining qarori bilan jamiyat raisi yo‘q paytda uning vazifasini bajarishi mumkin.

6.7. Taftish komissiyasi:

- jamiyat Markaziy boshqaruvi raisining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat qiladi;
- moddiy ne’matlar (mol-mulk) hisob-kitobi va ahvolini taftish etadi;
- bajarilgan ishlar borasida Qurultoyga hisobot beradi.

Taftish komissiyasi Qurultoy tomonidan ikki muddatga 4 (to‘rt) yilga saylanadi. Komissiya raisi komissiya a’zolari orasidan saylanadi.

6.8. Tashkilot ijob organida va uning bo‘linmalarida ish haqi asosida mehnat qiluvchi boshqa shaxslar Markaziy Boshqaruv hamda Nazorat-taftish komissiyasi a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

VII. Tashkilotning mol-mulki va pul mablag‘lari hamda ularni shakllantirish manbalari

7.1. Tashkilot, uning hududiy bo‘limlari va boshqa tuzilmalari o‘z faoliyatini moddiy ta’minlashi uchun zarur bo‘lgan binolariga, imoratlariga, inshootlariga, turar-joy fondlariga, transportlariga, jihozlariga, inventarlariga, madaniy-ma’rifiy va sog‘lomlashtirish mol-mulklariga, pul mablag‘lariga, boshqa qimmatbaho qog‘ozlariga va boshqa mol-mulklarga egalik qilishi mumkin, shuningdek tashkilot va uning tarkibidagi bo‘linmalar va boshqa tuzilmalarning mulklari tashkilotning umumiy mulki hisoblanadi.

7.2. Tashkilot ustav maqsadlariga muvofiq o‘z mablag‘lari hisobidan olgan va tashkil etgan muassasalariga, nashriyotiga, ommaviy axborot vositalariga egalik qilishi mumkin.

7.3. Tashkilotning mulki qonun bilan muhofaza qilinadi.

7.4. Tashkilot o‘z majburiyatlari yuzasidan qonunlarga muvofiq undirishga qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulki bilan javob beradi.

7.5. Tashkilotning qonunda taqiqilanmagan faoliyat turlaridan olgan daromadlari tashkilot Ustavida qayd etilgan faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltiriladi hamda tashkilot a’zolari o‘rtasida qayta taqsimlanmaydi.

7.6. Tashkilot o‘z faoliyati natijalari hisobini yuritadi hamda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi, soliq va statistika organlariga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.

7.7. Tashkilotning mol-mulki va pul mablag‘larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

a’zolik badallari;


ixtiyoriy mulkiy badallar va ehsonlar;

tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlari uchun ishlataladigan madlar (foyda);

davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar;

belgilangan tartibda turli tadbirdarni o‘tkazishdan tushadigan mablag‘lar;

qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa tushumlar.



VIII. Tashkilotning hududiy bo‘limlari va ularning mol-mulkni boshqarish borasidagi huquqlari

8.1. “Ezgulik” jamiyatini hududiy bo‘limlari alohida yuridik shaxs sifatida hududiy adliya organlari tomonidan ro‘yxatga olinadi va u moliyaviy ish yuritishda Markaziy boshqaruvdan mustaqildir. Shuningdek, uning mablag‘lari xayriyalar, a’zolik badallari hamda qonunda ta’qilganmagan boshqa tushumlardan shakllantiriladi.

8.2. “Ezgulik” jamiyatining hududiy bo‘limlari o‘z faoliyati davomida qonunda belgilangan tartibda adliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar taqdim etadi.

8.3. “Ezgulik” jamiyatini hududiy bo‘limlarining rahbar organi yillik (bir yilda bir marta chaqiriladigan) yig‘ilishdir.

Navbatdan tashqari yig‘ilish tashkilot a’zolarining kamida uchdan bir qismi talabi bilan chaqirilishi mumkin. Yig‘ilish tashkilot boshqaruvi, raisi va taftish komissiyasining hisobotlarini tinglaydi, yangidan boshqaruv raisi va taftish komissiyasini bir yil muddatga saylaydi, mahalliy doirada qarorlar qabul qiladi. Yig‘ilish ishtirokchilarining yarmidan ko‘pi yig‘ilish qarorlarini qo‘llab ovoz bersa, qaror qabul qilingan, deb hisoblanadi.

8.4. Hududiy bo‘lim Boshqaruvi asosan mahalliy faollardan saylanadi.

8.5. Boshqaruv:

- yillik yig‘ilish qarorlarida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishni ta’minaydi;
- faollarga aniq maslahat va yo‘riqnomalar beradi;
- yillik va navbatdan tashqari yig‘ilishlarni tayyorlaydi.
- mahalliy tashkilot boshqaruvi kamida har ikki oyda o‘z majlisiga to‘planib, a’zolarining yarmidan ko‘pi qatnashgandagina vakolatli hisoblanadi. Majlis qarori ochiq, ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

Boshqaruv yilning har bir choragida bir marta “Ezgulik” jamiyatini Markaziy boshqaruvi raisiga hududiy bo‘limda amalga oshirilgan ishlarni haqida hisobot berib turadi.

8.6. Hududiy bo‘lim raisi:

- tashkilotning joriy ishlarni yuritadi;
- Boshqaruv majlislarini olib boradi;
- yillik boshqaruv majlislari qarorlarining bajarilishini ta’minlaydi;
- tashkilot mablag‘i va mulkini boshqaradi.

8.7. Hududiy bo‘lim taftish komissiyasi:


- tashkilot boshqaruvi va raisning moliyaviy xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat qiladi;

- tashkilot rahbariyati va faollari o‘z ishlarida O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga amal qilayotganliklarini tekshirib boradi;

- ro‘yxatga oluvchi, soliq, statistika va boshqa qonunda nazarda tutilgan organlarga hisobotlar taqdim etadi;

- bajarilgan ishlarni haqida axborot berib boradi.

8.8. Tashkilotning hududiy bo‘limlarini tashkil etish, qayta tashkil etish faoliyatini tugatish tartibi, mol-mulkni boshqarish borasidagi huquqlari, ularning huquq va majburiyatlarini, ularning boshqaruv organlari faoliyati va vakolatlari hududiy bo‘limlarning nizomlarida batafsil ravishda belgilanganadi.



IX. Tashkilotni qayta tashkil qilish, tugatish va faoliyatini to‘xtatish tartibi

9.1. Tashkilotni qayta tashkil etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkilot Qurultoyi qaroriga binoan birlashish, qo‘silish, bo‘linish, ajralib chiqish va o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.

9.2. Tashkilot tomonidan qonun hujjatlarning talablari buzilgan taqdirda uning faoliyati sud tomonidan to‘xtatib qo‘yilishi mumkin.

9.3. Tashkilotni tugatish Qurultoy qaroriga binoan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

9.4. Tashkilotning Qurultoyi yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan organ ro‘yxatdan o‘tkazuvchi adliya organi bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini yohud tugatuvchini tayinlaydi.

9.5. Tashkilotni tugatish O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

9.6. Kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk tashkilot qatnashchilari (a’zolari), shuningdek rahbar organlarning a’zolari yoki tashkilotning xodimlari o‘rtasida taqsimlanishi mumkin emas, undan belgilangan tartibda tashkilot ustav maqsad va vazifalari doirasida hamda xayriya yo‘lida foydalaniadi.

X. Ustavga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish tartibi

10.1. Tashkilot ustaviga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar Qurultoy qaroriga asosan qonunda belgilangan tartibda kiritiladi.

10.2. Ustavga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkilot qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.


XI. Yakuniy qoidalar

11.1. Tashkilot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, o‘z faoliyatida foydalangan va chop etgan turli hujjatlarni saqlashga mas’ul va iqtisodiyotga ahamiyatli axborot-hujjatlarini saqlashni o‘z zimmasiga oladi.

11.2. Mazkur Ustavda Tashkilotning faoliyati to‘g‘risidagi aks etmagan turli qoidalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan tartibga solinadi.

11.3. Ustav qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga zid tarzda talqin qilish mumkin emas.

11.4. Ustav qoidalarining O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga zid tarzda ifoda qilingan bandlari haqiqiy emas.

Tashkilot raisi  A. Tashanov

